

## **“Dori-Darmon” aksiyadorlik kompaniyasining 2016 yilning 1-yarim yilligi davomidagi faoliyati yakunlari va kelgusidagi ustuvor vazifalari to‘g‘risida**

### I. 2016 yilning 1-yarim yilligi yakunlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar:

- umumiy tovar aylanmasi – 380,0 mlrd.so‘m; shu jumladan ulgurji savdo – 267,9 mlrd. so‘mni, chakana savdo – 112,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi;
- eksport xizmatlari 356,7 ming AQSh dollaridan iborat bo‘ldi;
- Kooperatsiya birjasi doirasidagi shartnomalar bo‘yicha mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalaridan 34,3 mlrd. so‘mlik farmatsevtika mahsulotlari xarid qilindi;
- kompaniya va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan jami 81 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi;
- qishloq joylaridagi aholini sifatli va arzon narxdagi dori vositalari bilan ta‘minlash ishlarini yanada yaxshilash maqsadida “DAMAS” rusumli avtomobillarda qo‘shimcha ravishda 50 ta ko‘chma dorixona shaxobchalari tashkil qilindi;
- kompaniya tizimidagi dorixonalarda 1,25 mlrd. so‘mlik steril va nosteril dori vositalari tayyorlandi;
- kompaniya tarkibidagi korxonalarda import o‘rnini bosuvchi farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,2 mlrd.so‘mga yetkazildi.

### II. Mavjud kamchilik va muammolar, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar:

1. Muammo: Dorixona muassasalarining asosiy qismi davolash-profilaktika muassasalari atrofida hamda bozorlar va shu kabi aholi gavjum joylarda faoliyat ko‘rsatayotganligi tufayli nosog‘lom raqobat yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, aholi punktlarining chekka joylarida dorixona muassasalari kam tashkil qilingan.

Taklif: Mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining ichki bozordagi ulushini intensiv oshib borishini inobatga olgan holda, mahalliy dori vositalari va tibbiy buyumlarga qo‘yiladigan savdo ustamalarini pasaytirib, xorijiy farmatsevtika mahsulotlariga qo‘yiladigan savdo ustamalarini bilan tenglashtirish, ya‘ni yetkazib berishda qatnashuvchi vositachilar sonidan qat‘i nazar, ulgurji savdoda 15% va chakana savdo uchun 20%dan ortiq bo‘lmagan miqdordagi cheklangan savdo ustamalarini (hozirgi kunda import qilingan dori vositalari uchun ulgurji-chakana – 20%, mahalliy uchun ulgurjida – 20% va chakanada - 25%) belgilash to‘g‘risidagi qarorini qabul qilishni tezlashtirish.

Sanitariya qoida va me‘yorlariga o‘zgartirishlar kiritib, dorixonalarning minimal maydoni 50 kv.metr bo‘lishi va dorixona muassasalari orasidagi masofa 500 metrdan kam bo‘lmasligini ko‘zda tutish.

2. Muammo: Qishloq vrachlik punktlarida faoliyat ko‘rsatayotgan dorixona shaxobchalariga alohida elektr o‘lchagich o‘rnatish talab etilishi.

Taklif: QVPlardagi dorixona shaxobchalariga alohida elektr o‘lchagich o‘rnatmasdan faoliyat yuritishga ruxsat berish.

### III. 2016 yilning 2-yarim yilligida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar:

1. 2016 yilga belgilangan biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash.
2. Mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida import Kooperatsiya birjasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha 69,9 mlrd.so'mlik mahsulotlarni xarid qilish.
3. Kompaniya va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yil davomida jami 86 ta yangi ish o'rinlarini yaratish.
4. 1,6 mln. AQSh.dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirib, 5 ta farmatsevtik korxonasini ishga tushirish.
5. Kompaniya tarkibidagi korxonalarda import o'rnini bosuvchi farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 12,7 mlrd.so'mga yetkazish.
6. Respublika aholisini arzon narxlardagi sifatli dori vositalari bilan ta'minlash maqsadida tuman markazlarida 129 ta ijtimoiy dorixonalarni tashkil qilish.